International Conference on
Linguistics, Literature And Translation

International Conference on Linguistics, Literature And Translation - double-blind peer-reviewed, monthly, open-access procedding published to get ecxellence on Research and Development. It publishes high-quality articles across the breadth of linguistics, literature and translation research. With its uniquely broad coverage, all articles are free to access across the globe, allowing authors to share their research and maximise its impact. The boletin on Linguistics, Literature And Translation is led by expert international editorial board members who take an objective approach to peer review, ensuring each research paper is reviewed and evaluated on its own scholarly merits and research integrity. Joining your work in the International Conference of Linguistics, Literature, and Translation means you will receive prompt and reliable publishing and a global platform for your research to reach its full potential.

SEMANTIC INTERPRETATION OF SELECTED GERMAN-ORIGIN POLITICAL TERMS IN UZBEK EXPLANATORY DICTIONARIES: A COMPARATIVE LEXICOGRAPHIC ANALYSIS

Sabirov Asror Abdullayevich
Independent researcher in the specialty 10.00.06 – Comparative Literature, Contrastive Linguistics and Translation Studies
Lecturer, Department of Western Languages and Literature, Mamun University, Khiva, Uzbekistan
sabirov_asror@mail.ru

Abstract
This thesis examines the semantic interpretation of selected political terms of German origin in Uzbek explanatory dictionaries through a comparative linguistic approach. The study focuses on the terms party (Ger. Partei), rent (Ger. Rente), sovereignty (Ger. Souveränität), and jurist (Ger. Jurist), analyzing and comparing their definitions across German, Russian, and Uzbek explanatory dictionaries. The findings reveal the patterns of semantic adaptation of these terms in the Uzbek language, as well as their role within the national terminological system.

Keywords: political terminology, lexicography, borrowed terms, semantic interpretation, comparative linguistics.

KIRISH

Terminologik tizim jamiyatning siyosiy, iqtisodiy hamda huquqiy rivojlanishi bilan uzviy aloqador holda shakllanadi. Siyosiy terminologiya esa turli tillar o‘rtasidagi leksik aloqalar natijasida boyib boradi. O‘zbek tilining zamonaviy siyosiy terminologiyasida nemis tilidan o‘zlashgan qator terminlar uchraydi.

Terminlarning semantik xususiyatlarini aniqlashda izohli lug‘atlar muhim manba hisoblanadi. Leksikografik talqin terminning asosiy ma’nosini, qo‘llanish doirasini hamda semantik chegaralarini aniqlashga xizmat qiladi. Shu sababli mazkur tadqiqotda nemis kelib chiqishli ayrim siyosiy terminlarning izohli lug‘atlardagi talqini qiyosiy jihatdan o‘rganildi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda nemis kelib chiqishli siyosiy terminlarning o‘zbek tilidagi semantik moslashuvi izohli lug‘atlar materiallari asosida qiyosiy-lingvistik nuqtayi nazardan tizimli ravishda tahlil qilinadi hamda ularning semantik rivojlanishi semantik saqlanish, qisman moslashuv va interpretativ farqlanish kabi modellarga ajratilgan holda yoritiladi.

Nemis izohli lug‘atlarida **Partei** termini umumiy siyosiy maqsadlar asosida birlashgan hamda siyosiy faoliyat olib boruvchi tashkilot sifatida izohlanadi [5: S. 809].

Rus izohli lug‘atlarida **партия** termini muayyan ijtimoiy guruh yoki sinf manfaatlarini ifodalovchi siyosiy tashkilot sifatida talqin qilinadi [4: с. 748].

O‘zbek tilining izohli lug‘atlarida **partiya** termini ma’lum ijtimoiy qatlam manfaatlarini ifodalovchi siyosiy tashkilot sifatida izohlangan [6: 229 b.].

Uch til lug‘atlaridagi talqinlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mazkur terminning asosiy semantik yadrosi siyosiy tashkilot tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lib, barcha tillarda deyarli o‘xshash konseptual mazmunga ega.

Bu holat semantik saqlanish modeli doirasida izohlanadi, ya’ni terminning asosiy konseptual yadrosi uchala til tizimida ham deyarli o‘zgarmagan holda saqlanib qolgan.

Nemis izohli lug‘atlarida **Souveränität** termini davlat hokimiyatining oliy va mustaqil huquqini bildiruvchi siyosiy-huquqiy kategoriya sifatida talqin qilinadi [5: S. 991].

Rus izohli lug‘atlarida **суверенитет** davlatning ichki va tashqi siyosatdagi to‘liq mustaqilligini ifodalovchi tushuncha sifatida izohlanadi [2: с. 637].

O‘zbek izohli lug‘atlarida **suverenitet** davlatning ichki va tashqi siyosiy faoliyatda mustaqil bo‘lishini bildiruvchi siyosiy-huquqiy tushuncha sifatida talqin qilinadi [6: 578 b.]. Bunda esa qisman semantik moslashuv kuzatiladi, chunki terminning umumiy mazmuni saqlangan bo‘lsa-da, uning talqinida ayrim interpretativ kengayish yoki aniqlashtirish elementlari mavjud.

Qiyosiy tahlil natijalari mazkur terminning semantik yadrosi uch til lug‘atlarida umumiy konseptual asosga ega ekanini ko‘rsatadi, biroq uning talqinida ayrim interpretativ farqlar ham kuzatiladi.

Nemis izohli lug‘atlarida **Rente** termini odatda kapital yoki mulkdan olinadigan muntazam daromadni bildiradi [5: S. 880].

Rus izohli lug‘atlarida **рента** kapital yoki yer mulkidan olinadigan daromad sifatida izohlanadi [4: с. 1117].

O‘zbek izohli lug‘atlarida **renta** mulk yoki kapital egalarining iqtisodiy faoliyatsiz oladigan daromadi sifatida talqin qilinadi [6: 376 b.]. Mazkur holat semantik kengayish modeli bilan izohlanadi, ya’ni terminning asosiy iqtisodiy mazmuni saqlangan holda, u siyosiy-iqtisodiy diskurs doirasida qo‘shimcha funksional yuklama kasb etadi.

Mazkur terminning uch til lug‘atlaridagi talqini asosan iqtisodiy terminologiya bilan bog‘liq bo‘lsa-da, u siyosiy-iqtisodiy diskursda ham faol qo‘llanib, davlatning iqtisodiy siyosati bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalashda ishlatiladi.

Nemis izohli lug‘atlarida **Jurist** huquqshunoslik sohasi mutaxassisini bildiruvchi termin sifatida izohlanadi [5: S. 532].

Rus izohli lug‘atlarida **юрист** huquqshunoslik sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassis sifatida talqin qilinadi [4: с. 1529].

O‘zbek izohli lug‘atlarida **yurist** yuridik bilimga ega bo‘lgan va huquq sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassis sifatida izohlanadi [6: 91 b.]. Ushbu termin esa semantik saqlanish modeli doirasida bo‘lib, uning mazmuni uchala til tizimida ham deyarli to‘liq mos keladi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, nemis kelib chiqishli siyosiy terminlarning izohli lug‘atlardagi semantik talqini uchala til tizimida umumiy konseptual asosga ega bo‘lib, ularning asosiy semantik

yadrosi saqlanib qolgan. Biroq ayrim terminlarda mazmunning aniqlashtirilishi, kengayishi yoki funksional jihatdan boyishi kabi interpretativ farqlar kuzatiladi.

Qiyosiy-lingvistik tahlil asosida mazkur terminlarning semantik rivojlanishi uch asosiy model doirasida namoyon bo‘lishi aniqlandi: semantik saqlanish (partiya, yurist), qisman semantik moslashuv (suverenitet) hamda semantik kengayish (renta). Ushbu tasnif terminlarning o‘zbek tiliga o‘zlashish jarayonida ularning semantik integratsiyasi turlicha darajada amalga oshishini ko‘rsatadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari nemis, rus va o‘zbek izohli lug‘atlari materiallari asosida siyosiy terminlarning leksikografik talqinini tizimli ravishda aniqlash imkonini beradi hamda ularning milliy terminologik tizimdagi o‘rnini belgilashda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

REFERENCES

[1] Duden, *German Universal Dictionary*. Mannheim: Dudenverlag, 2012.

[2] T. V. Egorova, *New Dictionary of Foreign Words*. Moscow: Adelant, 2014.

[3] L. P. Krysin, *Explanatory Dictionary of Foreign Words*. Moscow: EKSMO, 2006.

[4] S. A. Kuznetsov, *Big Explanatory Dictionary of the Russian Language*. Saint Petersburg: Norint, 2000.

[5] Langenscheidt, *Taschenwörterbuch Deutsch als Fremdsprache*. Berlin: Langenscheidt Verlag, 2008.

[6] A. Madvaliyev, Ed., *Explanatory Dictionary of the Uzbek Language*, 5 vols. Tashkent: National Encyclopedia of Uzbekistan State Scientific Publishing House, 2020.

[7] Z. M. Ma’rufov, Ed., *Explanatory Dictionary of the Uzbek Language*. Moscow: Russian Language Publishing House, 1981.

[8] S. I. Ozhegov, *Explanatory Dictionary of the Russian Language*. Moscow: Russian Language Publishing House, 1984.